MAMALAKATIMIZ IMPORTI VA EKSPORTIDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI	798
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
YEVROOBLIGATSIYA VA UNING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN EMISSIYASI	807
Avezov Ibrohim Ilxomovich	



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	808
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELING ZARURATI.....	813
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPIRIK TAHLILI	831
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
Raxmonova Nigina Anvarovna	
IJTIMOİY SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
Bafojev Farrux Jo'raqulovich	
AHOLI IJTIMOİY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
Ulashev Xubbim Askarovich	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
Raxshona Nabibullayeva	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
Toshev Akmal Salimovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSİYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich

i.f.f.d (PhD) dotsent v.b

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

e-mail: bobir_rahmatullayev@tues.uz

ORCID ID: 0009-0002-9182-1893

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Innovatsion infratuzilmaning shakllanishi, raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi, texnoparklar va sanoat klasterlarining rivojlanishi investitsion muhitga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. O'zbekistonning so'nggi yillardagi investitsiya siyosati misolida hududlar kesimida investitsion jozibadorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlar asosida hududlarning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va barqaror investitsiya oqimini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, investitsiyaviy jozibadorlik, texnoparklar, raqamli iqtisodiyot, infratuzilma, xorijiy investitsiyalar.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of enhancing the investment attractiveness of regions in the context of an innovative economy. The study examines the formation of innovative infrastructure, the implementation of the digital economy, and the development of technoparks and industrial clusters, highlighting their impact on the investment environment. Using recent developments in Uzbekistan's investment policy as an example, the article identifies priority directions for increasing regional investment attractiveness. The research findings provide recommendations and proposals for strengthening regional economic potential and ensuring a sustainable flow of investments through innovative approaches.

Key words: Innovative economy, regional development, investment attractiveness, technoparks, digital economy, infrastructure, foreign investments.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты повышения инвестиционной привлекательности регионов в контексте инновационной экономики. Научно рассмотрено влияние формирования инновационной инфраструктуры, внедрения цифровой экономики, развития технопарков и промышленных кластеров на инвестиционную среду. На примере инвестиционной политики Узбекистана последних лет определены приоритетные направления повышения инвестиционной привлекательности регионов. Результаты исследования включают предложения и рекомендации по укреплению экономического потенциала регионов и обеспечению стабильного инвестиционного потока на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: инновационная экономика, региональное развитие, инвестиционная привлекательность, технопарки, цифровая экономика, инфраструктура, иностранные инвестиции.

KIRISH

Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Xususan, hududlar miqyosida investitsion faollikni oshirish, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda hududlar investitsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish esa iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib, raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, bandlikni ta'minlash kabi jarayonlarda katta ahamiyat kasb etadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi, iqtisodiy liberallashtirish siyosati va faol investitsion muhit yaratishga qaratilgan islohotlar hududlarning innovatsion-investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, erishilgan samara va ijobiy natijalarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, shundan kelib chiqib faol investitsion siyosat yuritishning o'rnini juda muhimdir. Shu boisdan, mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ilg'or boshqaruv modeli yaratish, ularning investitsion muhit jozibadorligi, rivojlanish imkonlarini baholashning nazariy va metodologik muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarni inobatga olib "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022- yil 28-yanvarda Prezident Farmoni tasdiqlandi. Farmonga ko'ra uchinchi ustuvor yo'nalish Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash deb nomlanib, unda investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlariva hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish vazifasi ko'rsatilgan [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish masalasi innovatsion iqtisodiyot sharoitida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xorijiy adabiyotlarda asosan innovatsion infratuzilma, raqamli transformatsiya, hududiy raqobatbardoshlik hamda investitsiya muhitini baholash metodlari chuqur o'rganilgan.

M. Porter (1990) tomonidan ishlab chiqilgan "Milliy raqobat ustunliklari" konsepsiyasida klasterlar, innovatsion faoliyat va hududiy iqtisodiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilgan bo'lib, hududlarda innovatsion klasterlarni shakllantirish investitsiya oqimini kuchaytirishi ta'kidlanadi. [2].

J. Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasi esa iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida "yangilik kiritish", "texnologik yetakchilik" va "tadbirkorlik tashabbusi"ni ko'rsatadi.

Innovatsion salohiyat indeksi (ICI) - bu 131 mamlakatning innovatsion salohiyatini, mamlakatning innovatsiyalarni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi muhit yaratish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan 5 sub indeksga guruhlangan 60 mezon bo'yicha baholaydigan xalqaro indeks.

Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va OECD hisobotlarida hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini baholashda infratuzilma sifati, biznes yuritish qulayligi, innovatsion ekotizim, kadrlar salohiyati, logistika samaradorligi, institutsional ishonch kabi ko'rsatkichlar asosiy mezon sifatida qo'llanadi. Xususan, OECD (2021) tadqiqotlarida innovatsion iqtisodiyot sharoitida hududlar raqobatbardoshligini belgilovchi omil sifatida ilmiy-tadqiqot xarajatlari, startaplar soni va texnoparklar faoliyati birinchi o'ringa qo'yiladi.

MDH davlatlari olimlari, jumladan, N. Rybakova, S. Glaziev, V. Dementyevlarning ilmiy izlanishlarida innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani hududlarning investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ularning fikriga ko'ra, hududlar kesimida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish, texnologik modernizatsiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni kengaytirish investitsiya oqimini keskin oshiradi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham mazkur yo'nalishda qator tadqiqotlar olib borilgan. A. Vahobov, S. G'ulomov, Q. Ismoilov, N. Saidovlarning ilmiy ishlari innovatsion iqtisodiyotning milliy modelini shakllantirish, hududiy rivojlanish strategiyalari, investitsion muhitni takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritadi. Tadqiqotlarda hududiy investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillar sifatida raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, infratuzilmaning modernizatsiyasi va inson kapitalining sifat darajasi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi ko'plab omillar majmuiga asoslanadi. Jahon tajribasi innovatsion infratuzilma, texnoparklar va klasterlar, ilmiy-tadqiqot salohiyati, inson kapitali va raqamli iqtisodiyotning rivoji hududlar investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda innovatsion iqtisodiyot sharoitida hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, mavjud holatni baholash hamda samarali takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Hududlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar, investitsiya oqimi, infratuzilma holati va innovatsion ekotizim rivoji bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.




TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini baholash maqsadida mavjud statistik ko'rsatkichlar, hududiy infratuzilma holati, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, xorijiy investitsiyalar tarkibi hamda innovatsion muhitning rivojlanish darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari hududlar kesimida investitsiya faoliyati sezilarli darajada farqlanishini va bu farqlar ko'p jihatdan innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog'liq ekanini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mamlakatda investitsiya siyosatini liberallashtirish, tartib-taomillarni soddalashtirish va investorlar uchun yangi kafolatlar yaratish natijasida hududlarda investitsiya oqimi ijobiy o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- Innovatsion infratuzilma nisbatan rivojlangan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona vodiysi hududlari va Samarqand viloyati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi o'rinni egallamoqda.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi va ayrim chekka viloyatlarda investitsion faollik past bo'lib, bunga transport-logistika imkoniyatlarining cheklanganligi, kadrlar salohiyatining yetarli darajada shakllanmagani va innovatsion muhitning sustligi sabab bo'lmoqda.

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida: infratuzilma holati, innovatsion ekotizim mavjudligi, soliq imtiyozlari, ishlab chiqarish klasterlarining shakllanganligi, kadrlar salohiyati va biznes muhitning qulayligi aniqlangan.



1-rasm. Investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi omillar

O'zbekiston eksporti oxirgi yillarda ancha o'sish sur'atida - bu esa hududlarda investitsiyaviy salohiyat va ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportga yo'naltirilishi bilan bog'liq.

2025-yil yanvar-avgust oylarida O'zbekiston eksporti 22,98 milliard dollarni, importi esa 28,45 milliard dollarni tashkil etdi

O'zbekiston dunyoning 200 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan. Joriy yilning yanvar-avgust oylarida respublika tashqi savdo aylanmasi 51,44 milliard dollarga yetdi.¹

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,8 foizga yoki 8,5 milliard dollarga ko'pdir.

Shu davr mobaynida:

- eksport hajmi 22,98 milliard dollarni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-avgustiga nisbatan 31,3 foizga o'sdi;
- import hajmi esa 24,29 milliard dollarga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 11,8 foizga ko'paydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi savdo jarayonlari mamlakatning jahon iqtisodiy makoniga integratsiyalashuvi, ishlab chiqarish tarkibining modernizatsiyasi va eksport salohiyatining oshishida muhim o'rin tutadi. Tovarlar va xizmatlar eksporti hamda importi dinamikasi iqtisodiy o'sish barqarorligi, milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi, shuningdek, ichki bozorni zarur resurs va texnologiyalar bilan ta'minlash darajasini aks ettiradi. Shu bois tashqi savdo aylanmasi tarkibini tahlil qilish, undagi o'zgarishlar yo'nalishini aniqlash va eksport-import mutanosibligini baholash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasining tovarlar va xizmatlar bo'yicha eksport va import hajmlarining so'nggi yillardagi o'zgarishlari keltirilib, tashqi savdo balansi holati va uning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

¹ Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari



1-jadval. O'zbekiston tashqi savdosida tovarlar va xizmatlar eksporti va importi. (2020-2024 yy)

Tashqi savdo qiymatlari	2020	2021	2022	2023	2024
Tovarlar importi (million USD)	19,932	23,740	28,220	35,575	35,238
Tovarlar eksporti (million USD)	13,097	14,081	15,276	19,229	19,744
Xizmatlar importi (million USD)	3,562	4,997	7,310	8,139	10,428
Xizmatlar eksporti (million USD)	1,697	2,289	4,307	5,417	6,524

Manba: Jahon savdo tashkiloti (JST); Eng so'nggi mavjud ma'lumotlar

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar to'qimachilik sanoatining jadal rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Mamlakatda paxta yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan butun zanjirni qamrab olgan klaster tizimining shakllanishi, xomashyoni chuqur qayta ishlash, qo'shilgan qiymatni oshirish hamda yuqori raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

So'nggi yillarda investitsiyalar va yangi texnologiyalar faol jalb etilgani tufayli sohada natijadorlik jadal oshgan. Masalan, o'tgan yili 8 milliard 200 million dollarlik to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bu ko'rsatkich 7 yil oldingiga nisbatan 4,2 baravar ko'p.

Shuningdek, 2023-yilda tarmoqdagi eksport 3,1 milliard dollar bo'ldi. Bu yil yana uchta yangi bozorlarga chiqilib, eksport geografiyasi 83 ta davlatga yetdi.

Biroq uning tarkibi tahlil qilinsa, muayyan kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, tayyor tovarlar eksportida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi kam. Eksportning qariyb 80 foizi an'anaviy bozorlarga to'g'ri kelayapti. Yevropaga eksport hajmi kutilganidek emas.

Rivojlangan davlatlar bozoriga yoki brendlarga eksport hajmini oshirish uchun xalqaro standart va sertifikat talab etiladi. Lekin bizdagi atigi 175 ta korxona bunday talablarga javob beradi. 18 ta tumanda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish yillik hajmi 1 million dollarga ham yetmaydi.²

Davlat statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida to'qimachilik mahsulotlari eksporti yildan-yilga oshgan. 2020-yilda 1,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2024-yilda 3,1 mlrd dollarga yetgan. Eksport geografiyasi kengayib, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy va MDH mamlakatlari asosiy hamkorlar qatoriga kirgan.

So'nggi yillarda mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha bir qator tub islohotlar amalga oshirildi. Xususan:

- ✓ valyuta siyosatini liberallashtirish;
- ✓ soliq tizimini soddalashtirish;
- ✓ davlat-xususiy sheriklikni joriy etish;
- ✓ erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar tashkil etish;
- ✓ investorlarga imtiyozlar taqdim etish;
- ✓ "bir darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish kabi islohotlar buning yorqin misolidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi ularning iqtisodiy, infratuzilmaviy, innovatsion salohiyatining qay darajada rivojlanganiga bog'liq. Innovatsion iqtisodiyot rivojlanmagan hududlarda investitsiyalar oqimi past bo'ladi, aksincha, innovatsion infratuzilma rivojlangan hududlar ko'proq investorlarni jalb qiladi.

Demak, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi innovatsion iqtisodiyot omillariga bevosita bog'liq bo'lib, ularni uyg'unlashtirish orqali davlatning umumiy iqtisodiy qudratini mustahkamlash mumkin.

² Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-aprel kuni to'qimachilik sohasida eksport va investitsiya hajmlarini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig'ilishi ma'lumotlaridan olindi. <https://president.uz/>



Kelajakda innovatsion yondashuvlar asosida har bir hudud o'z potensialidan samarali foydalangan holda mahalliy va xorijiy investorlar uchun eng jozibador makonga aylanadi.

Infratuzilma rivojlanish darajasi (yo'llar, elektr, gaz, suv ta'minoti), kadrlar salohiyati va ta'lim tizimining holati, hududning geografik joylashuvi, mahalliy hokimiyatlarning investorlar bilan ishlash tajribasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi, soliq va bojxona imtiyozlari mavjudligi bir hududni boshqasidan ustun qiladi va investitsiya oqimiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. Institutsional omillar: qonunchilikning aniqligi va barqarorligi, investor huquqlarining kafolatlanganligi, davlat boshqaruvidagi shaffoflik, korrupsiyaga qarshi samarali tizim mavjudligi

2. Iqtisodiy omillar: hududning makroiqtisodiy barqarorligi, bozorlarning rivojlanganligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish salohiyati, soliq yuki darajasi

Hududlarni modernizatsiya qilish va investitsiyalar oqimini ko'paytirish uchun quyidagi innovatsion mexanizmlardan foydalanish samaralidir:

Raqamlashtirish orqali, ya'ni: "Smart city" loyihalarini joriy etish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini to'liq onlayn shaklga o'tkazish, investitsiya loyihalarini boshqarishning raqamli platformalarini yaratish.

Raqamlashtirilgan hududlar investorlar uchun yanada jozibador bo'ladi.

Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali, ya'ni:

- Texnoparklar
- IT-parklar
- Ilmiy-innovatsion markazlar
- Startaplar uchun grant va akseleratsiya dasturlari

Bular hududda innovatsion faollikni oshirib, investorlarga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Har bir viloyat o'zining tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslariga mos tarzda ixtisoslashishi zarur.

Masalan:

- ✓ Surxondaryo –agrobiznes va ziyorat
- ✓ Navoiy - tog'-kon va kimyo sanoati
- ✓ Andijon - avtomobilsozlik
- ✓ Toshkent shahri - IT markaz
- ✓ Buxoro - turizm va energetika

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish - mamlakatning barqaror, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi strategik vazifadir. Infratuzilma, raqamlashtirish, innovatsion muhit, professional kadrlar va qulay investitsiya siyosati - hududning jozibadorligini belgilovchi eng muhim omillardir.

O'zbekiston hududlarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, yangi imkoniyatlar, biznes uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar investitsiya oqimini yanada ko'paytiradi va iqtisodiy taraqqiyot uchun yangi ufqlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar "2022 -2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. Free Press.
3. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). *World Investment Report 2024: Investing in Sustainable Development*. – Geneva: United Nations, 2024. – 284 p.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. *O'zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida* PF-60-son Farmon. – T.: Prezident matbuot xizmati, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. *Rasmiy statistika ma'lumotlari*. – T.: 2024. – Elektron manba: <https://stat.uz>
6. Xodjayev, B.X. *Investitsion jarayonlarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti*. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 276 b.
7. Karimov, A.A. *Hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirishning iqtisodiy asoslari*. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 214 b.
8. Porter, M. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
9. Muminov, I.I., Tojimatov, S.T. Hududiy investitsion salohiyatni baholash metodologiyasi // *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*. – 2023. – №3. – B. 45–52.
10. Soliyeva, N.N. *Davlat-xususiy sheriklikning mintaqaviy investitsion faollikka ta'siri*. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. – 192 b.
11. Ikramova Nodira Burkhon qizi "To'qimachilik sohasida raqobat salohiyatini yuksaltirish" ilmiy maqolasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>